



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 16,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2019 yil yanvar-fevral oyida bozor xizmatlari hajmi 965,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 379,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda viloytda 16,3 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 11,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 67,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil 1 mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil 1 mart holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (25,1 %) yuqori ulushni egallaydi.

2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini ijadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar ulushi 1,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 965,3 mlrd. so'mga ten bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,2% ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar- fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	967,1	114,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	51,0	98,0
moliyaviy xizmatlar	153,1	191,4
transport xizmatlari	161,5	102,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	154,7	101,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	34,6	110,3
savdo xizmatlari	389,2	107,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	27,6	101,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	24,1	107,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	10,3	108,8
ijara xizmatlari	26,5	120,9
Kompyuterlar va ma'shiytovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	27,9	102,2
shaxsiy xizmatlar	29,7	100,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahli lsohasidagi xizmatlar	8,9	173,1
boshqa xizmatlar	20,9	92,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (389,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (161,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlari (153,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (51,0 trln.so'm), shaxsiy xizmatlar (34,6 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar- fevral oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2018 yil yanvar oyiga nisbatan 1,3 mln.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar(191,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar(173,1 %), Ijara xizmatlar (120,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlar (110,3 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2019 yil yanvar- fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar(92,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari(98,8%), shaxsiy xizmatlar (100,2 %) kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar(101,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2019yil yanvar oyida uning ulushi 40,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (16,7 %), moliyaviy xizmatlar (15,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) egallaydi.

2019 yil yanvar- fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash sohasidagi bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan xizmatlar lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimaz (1,1 %) ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar- fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 379,8 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 67,4 ming.so'mga oshdi.



Surxondaryo viloyati
Statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: P.Eshboeva
Tel: (71) 230-85-84